

## TIJORAT BANKLARIDA TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN ICHKI AUDIT XIZMATI FAOLIYATINI REJALASHTIRISH BOSQICHLARI TADQIQI

*Safarov Abdumajid Abdihamidovich*

*O'zbekiston Respublikasi Bank- moliya akademiyasi magistri.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola tijorat banklarida tavakkalchilikka asoslangan ichki audit xizmati faoliyatini rejalashtirish bosqichlari tahlil qilindi. Shuningdek, tijorat banklarida ichki audit faoliyatini rivojlantirishning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada ichki audit tizimining asosiy funksiyalari, uning bank boshqaruvidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ichki audit jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi va zamonaviy texnologiyalarning ichki audit faoliyatiga ta'siri ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimining doimiy ravishda rivojlantirilishi banklarning raqobatbardoshligini oshirishda va mijozlar ishonchini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklar, Ichki audit, moliyaviy operatsiyalar, faoliyat samaradorligi, identifikatsiya, baholash, boshqarish, metodologiya, moliyaviy risklar.

### KIRISH

O'zbekistonda bank auditi bo'yicha tijorat banklari moliyaviy holatini tahlil qilishning o'ziga xos tizimi tashkil qilingan. Shuningdek, tijorat banklari Markaziy bankka har oy faoliyatining ko'p sohalarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar, balans hisoboti, iqtisodiy normativlar hisob-kitobi, foyda va zararlar hisobotlarini taqdim etadilar.

Audit tushunchasi - xo'jalik subyektlari faoliyatining yakunlarini xolisona baholash bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liqdir. Chunki rejali xo'jalik yuritish usulida to'la mustaqil bo'lmagan korxonalami audit qilishga zaruriyat yo'q bo'lib, ularni taftish qilish kerak edi. Shuning uchun barcha davlat vazirliklarida taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, bu boshqarmalar rejali xo'jalik yuritishda muhim ro'l o'ynagan. Davlat banki tizimida ham taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, barcha davlat banki bo'limlari yilda bir marta rejali taftish qilinadi.

Jahon iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan integratsiyalashayotgan O'zbekistonda hozirgi kunda xalqaro moliyaviy hisobotlar va audit standartlariga o'tish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda sohaga oid normativ-huquqiy baza zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Bunga misol qilib bank auditini olish mumkin.

Bank auditining maqsadi:

- tekshirilayotgan bankning moliyaviy hisobotining ishonchliligi bo'yicha xulosa berish;
- moliyaviy bozorga ishonchli axborot berishni ta'minlash. Bank auditing vazifalari:
  - banklarning moliyaviy hisobotini tahlil qilish va ishonchliligini tasdiqlash;
  - banklar faoliyatining realligi va unga obyektiv baho berish;
  - aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar va boshqa tashqi foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish;
  - bank faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tijorat banklari faoliyatida ichki auditorlik tekshiruvini tashkil qilishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish masalalari ko'pchilik iqtisodchi olimlar hamda mutaxassislarining e'tiborida bo'lgan. Jumladan, rossiyalik olim Kochinev (2004) banklarda audit o'tkazishda audit jarayonini rejalashtirishga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, uning fikriga ko'ra "audit jarayonini rejalashtirish umumiy maqsadga erishish uchun harakatlarning yig'indisi bo'lib, asosiy maqsadga erishish uchun tekshiruv strategiyasini va taktikasini tanlash, tekshiruv turi, hajmi va harakatlar ketma-ketligini ta'minlashdir". Slaveniyalik olim Ion-Bogdan Dumitrescu (2004): "Ichki audit mustaqil va maslahat beruvchi faoliyat bo'lib tashkilot faoliyatini yaxshilaydi. Bu tashkilot maqsadiga tizimli, intizomli yondashuv orqali erishishga, risklarni baholashga va tashkilot samaradorligini oshirishga yordam beradi" deya ta'rif bergan bo'lsa, Iordaniya davlatining ilmiy tadqiqotchisi Arsha Amaushning (2017) fikricha, "Ichki audit va taftish komissiyasi rolining ahamiyati har qanday bankda institutsional boshqaruv tizimining muhim ustunlaridan biri sifatida ta'kidlanishi kerak. Banklarda audit o'tkazish favqulodda ehtiyojdir, chunki har qanday muammo yuz bersa, ko'plab ishchilar va milliy iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mamlakatimiz olimlaridan Sh.Abdullaeva, N.Karimov, T.Qoraliev, I.Murugova, K.Navro'zova, S.Norqobilov, Abdusalomova O., X.Rahimova va ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, mahalliy olimlarimiz M.L.Yadgarova, R.B.Qurbonovlarning fikricha, bank auditi auditning muhim bo'limi bo'lib, mustaqil nazorat qiluvchi subyekt sifatida bank tomonidan berilayotgan moliyaviy axborotlarning haqiqiylikini tasdiqlaydi. Undan kutilayotgan maqsad bank faoliyatining barcha qirralari bo'yicha faktlarni yig'ish va baholash, hisobotlarni tekshirish, ularning me'yoriy hujjatlarga mos ravishda bajarilgan yoki bajarilmaganligini tekshirishdan iborat.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.

Ichki audit – bu tashkilot ichida amalga oshiriladigan mustaqil va obyektiv kafolat va maslahat beruvchi faoliyat bo‘lib, tashkilotning ish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Ichki auditning asosiy vazifasi bankning moliyaviy holatini, ichki nazorat tizimini va ish jarayonlarini tekshirish orqali xavflarni aniqlash va kamaytirishdir. Ichki audit faoliyati o‘zining qator vazifalariga ega.

Bular quyidagilar:

- bankning moliyaviy hisobotlarini tekshirish va baholash;
- ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash;
- bank faoliyatidagi xavflarni aniqlash va boshqarish;
- bankning amaldagi qonun hujjatlari va ichki qoidalariga rioya etishni nazorat qilish;
- tashkilotning samaradorligini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-677-son Qonunining qabul qilinishi, auditorlik faoliyatini tartibga solishda hujjatlarni uni fikatsiyalab va tizimlashtirib yagona normativ – hujjatning shakllanishiga sabab bo‘ldi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ichki auditorlarning asosiy vazifasi bank tomonidan olib borilayotgan faoliyatni qonunchilikka va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiqligini hamda ichki nazorat tomonidan olib borilayotgan faoliyatni nazorat qilishdan iboratdir. Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida tijorat banklari ichki auditorlari tomonidan bank moliyaviy hisobotlari joriy audit tekshiruvidan o‘tkazib borilmoqda.

Tavakkalchilikka asoslangan ichki audit - yoppasiga yoki tanlov yo‘li bilan amalga oshiriladigan tekshirish bo‘lib, u bank faoliyati sharoitidan kelib chiqib va asosan tor doiradagi bank operatsiyalarini tekshirish bilan asoslanadi.

Audit tekshiruvlarini o‘tkazish metodlari quyidagicha:

Muhumilik darajasi bo‘yicha :

- to‘liq tekshirish;
- tanlab tekshirish.

O‘tkazish usuliga ko‘ra:

- hujjatli tekshiruv;
- dalilli tekshiruv;
- analitik tekshiruv;
- kombinarli tekshiruv.

Audit dalillari quyidagi yo‘llar bilan olinishi mumkin:

- inspeksiya;
- nazorat qilish;
- so‘rovnoma;
- tasdiqlash;

- qayta hisobga olish;
- analitik jarayon.

Ichki audit funksiyalari:

- bank rahbariyati bilan birgalikda faoliyat yuritish;
- bank xodimlari o'z vazifalarini samarali bajarishlarida yordam berish;
- moliyaviy hisobotni (oylik, choraklik, yillik) joriy auditorlik tekshiruvdan o'tkazish;
- operatsiyalar yoki dasturlarning natijalari ularning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos kelishi hamda rejaning bajarilishini aniqlash maqsadida ularni tekshirish;
- buxgalteriya, operatsion va ma'muriy nazorat tizimlarining monandligini baholash;
- bank faoliyatini tashqi auditga tayyorlash.

Auditorlik faoliyati prinsiplari:

- mustaqillik;
- xolislik;
- erkinlik;
- malakalilik;
- maxfiylik.

Davlat organlarining auditorlik xizmatlariga munosabati turlicha. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada auditorlik tashkilotlari mustaqil bo'lib, ular auditorlarni o'zlari tayyorlaydilar, tegishli malakaviy unvonlarni beradilar va keyinchalik ham ularning o'z vazifalarini vijdonan, halol bajarishlarini nazorat qilib turadilar. Boshqa Yevropa mamlakatlarida auditorlik faoliyati hukumat organlari tomonidan tashkil qilinadi.<sup>2</sup>

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi bank tizimiga kiruvchi tijorat banklari auditini o'tkazish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida tijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti tarkibida "Auditni muvofiqlashtirish bo'limi" tashkil etildi. Shuningdek, mazkur farmonga muvofiq tijorat banklarida audit tekshiruvlarini o'tkazish, auditorlik firmalari va auditorlarga banklarda audit o'tkazishga ruxsat berishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida Markaziy bank tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank auditini o'tkazishga qo'yadigan talablari to'g'risida"gi, "Bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatni berish, bekor qilish va auditorlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi bank auditini

<sup>2</sup> B.J.Xakimov, B.B.Alimov, U.A.Xolmirzayev "Iqtisodiy audit tahlil nazariyasi" T: "Iqtisod-Moliya"-2023.

o'tkazish uchun sertifikat berish va auditorlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazish komissiyasi to'g'risida"gi nizomlar ishlab chiqildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Shodiyev T.Sh., Xakimov T.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I., Nurullayeva Sh., Muminova M.A. "Audit" (o'quv qo'llanma). —T.: TDIU, 2021.-178-bet).
2. Abdullayev a., Umarov N. "Audit ko'rsatkichlar statistikasi" –T.;Moliya,2021.-92-bet.
3. Shodiyev.X "Audit fanining predmeti, usullari, vazifalari va asosiy tushunchalari" T:2022 bet.41-bet.
4. B.J.Xakimov,B.B.Alimov,U.A.Xolmirzayev "Iqtisodiy audit tahlil nazariyasi" T: "Iqtisod-Moliya"-2023.
5. Z.A.Jumayev, "Audit" T:2020. 112-b.
6. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
7. Мелибаева, Г. (2021). Иқтисодий диверсификациялаш шароитида тижорат банк активлари самарадорлигини ошириш масалалари. Общество и инновации, 2(4/S), 282-291.